

## O'QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI

<sup>1</sup>Yo'ldoshyev Sardorbek Asliddin o'g'li-O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, o'qituvchi

[sardorbekyoldoshyev@gmail.com](mailto:sardorbekyoldoshyev@gmail.com)

<sup>2</sup>Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi-Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversiteti Jizzax filiali, Yoshlar psixologiyasi yo'nalishi, 220-20 guruh talabasi

**Annotatsiya:**Maqolaning mazmuni shundan iboratki, deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish, to'g'rilash davomida o'smir xulqini kelib chiqishi sabablarini aniqlash.

**Kalit so'zlar:** korreksiya, deviant, muloqot, psixokorreksiya, huquqbuzarlik, ruhshunos, psixoterapevt, o'smir, giyohvand, profilaktika.

Ruhiy korreksiya – bu keng ma'noda amaliy ruhshunoslikning shunday shakli va usuldagi faoliyatki, bu faoliyat insonni ruhiy, aqliy va shaxsiy rivojlantirishdagi zaifliklarni tuzatishlarga qaratilgan bo'ladi. Psixologik korreksiyasining maxsus bo'lgan ma'nosi ruhshunos “nimani tuzatmoqchi” bo'lishiga bog'liqdir. Masalan: bilim olishga bo'lgan intilish korreksiyasi, deviant xulqining korreksiyasi, o'zaro muloqot kelishmovchiliklarning korreksiyasi. Ruhiiy korreksiya, ruhiy konsultatsiya (maslahat berish) bilan uzviy bog'liq, u psixologiyaning mustaqil bo'limidir. Aynan, yakka tartibdagi ruhiy maslahatlar turli hayotiy, shaxsiy va boshqa shu turdagi muammolari bor insonlarga yordam beradi. Maxsus tashkil etilgan muloqot-suhbat davomida psixolog yordamida shaxs o'zidagi bor kuchlarni safarbar qilaolishi mumkin. Aynan, shu qo'shimcha ruhiy kuch-quvvat va qobiliyat, insonning qiyin muammoli holatlardan chiqishga yordam beradi. Maslahat berish usullarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Hayotiy ko'nikmalar, treninglar;
2. Insonlarning o'zaro aloqalarining treningi;
3. Muammoni hal qilish va muhim qaror qabul qilish treningi;

4. Qobiliyatlarni yoʻnaltirish va rivojlantirish;

5. Oʻzining rivojlantirishga, oʻz ustida ishlashga yordam.

Bu usuldagi treninglardan guruh ichidagi va oilaviy ruhshunoslikda, ruhiy terapiyada foydalaniladi, shu usullar vositasida muammoli vaziyatga shaxsning boshqalar bilan kelisha olmaslik xususiyatlarini toʻgʻrilash kiritiladi (psixokorreksiya). Ruhiy korreksiya va rivojlanish kamchiliklarni tuzatish va shaxsning shakllanishi jarayonida yuz bergan meʼyordan chiqishlarni hal qilish: shaxsning sogʻlom ruhiy rivojlantirishga sharoit yaratish.

Korreksiyaning maqsad va vazifalari:

- ruhiy rivojlantirish jarayonini toʻgʻirlash, oʻquvchilarning salbiy fikr, xatti-harakatlariga oʻzgartirish kiritish;
- oʻquvchilarning qiziqish, faolligini bilish jarayoniga boʻlgan intilishlarini rivojlantirish maqsadida ularning aqliy sustkashligini toʻgʻrilash;
- bolalar va oʻsmirlarning ijtimoiy meʼyorlarga, qadriyatlarga, oʻz deviant xulqisabab, oqibatlariga, atrof-muhitga, maktab hayotiga moslasha olmaganliklarni toʻgʻrilanishi;
- oʻsmirlarga, ularning ota-onalari, oʻqituvchilariga, tarbiyachilarga ruhiy korreksiyaning shaxsni rivojlantirish uchun qanchalik muhimligini tushuntirish.

Ruhiy maslahatlar – oʻsmirlarga, ota-onalarga, vasiy-homiylarga, oʻqituvchi va tarbiyachilarga ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun koʻrsatiladigan ruhiy yordam. Ichki ruhiy quvvatni jamlay olishni oʻrgatish.

Maslahatlarning maqsad vazifalari:

- ota-onalarga bolalarning yoshiga va ijtimoiy ruhiy xususiyatlariga qarab savollariga javob berish ularning rivojlantirishdagi kamchiliklarni engib oʻtib, toʻgʻrilab oʻzgartirish;
- oʻsmir oʻgʻil va qizlarga kattalar, tengdoshlari bilan kechadigan oʻzaro muloqotlardagi qiyinchiliklari, shaxsiy, kasbiy muammolarni chetlab oʻtishi haqida maslahat berish;

- o‘smirlarning o‘z «men»ini shakllantirib, o‘ziga hurmat bilan qarashni, o‘z ustida ishlashni, o‘zidagi kamchiliklarni amalda tuzatish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘zgartirish. Deviant xulqli o‘smirlar va voyaga yetmagan huquq buzlar bilan yakka tartibdagi korreksiya ishlarini quyidagi uslublarda olib borish tavsiya etiladi:

1. “Psixoterapevtikoyna” vositasi – o‘zini tashqaridan ko‘rishga imkoniyat yaratib, shartli ravishda o‘zini tushunishni rivojlantirish;
2. “Muqobil yo‘llar” vositasi – noto‘g‘ri axloq-odob me‘yorlarini namoyon qilgan o‘smirga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish;
3. “O‘rniga-o‘rin” vositasi – xarakterida, fe‘l-atvoridagi bo‘shanglik, iroda va kuchli ruhiy quvvat kabilar bilan o‘rniga o‘rin almashtirish, to‘ldirish taklif qilinadi;
4. “Ijobiy ijtimoiy faoliyatni singdirish” vositasi – ruhshunosning salbiy dunyo qarashni o‘zgartirib, ijobiy fikrlashga ta’sir qilishi;
5. “Ma’naviy immunitet hosil qilish” usuli – namunaviy, ideal axloq-me‘yorlariga ega bo‘lishni maktabdan, hayotdagi misollardan keltirish, ba’zi insonlarning salbiy ta’siriga qarshi immunitet hosil qilish;
6. “Ko‘rsatmalar, qoidalar” usuli – oilaviy ruhiy terapiya vositasida oila a’zolarining qilishi kerak bo‘lgan ishlari qonun-qoidasini belgilaydi. Shuningdek, deviant xulqning ayanchli oqibatlari haqida gapirish ham darkor. Deviant xulqli o‘smirni o‘z qilmishlarining yomon oqibatlari haqida iqror bo‘lishga undash ham profilaktik ishlarining bir qismidir. Agar bunga o‘smir rozi bo‘lmasa, deviant xulqning ayanchli oqibatlari ta’sirini atrofdagi odamlar misolida tahlil qilish mumkin. Maslahat berayotgan ruhshunos o‘z mijozini gunoh, uyat, alam, og‘riq, dard, nafrat, g‘azab, ojizlik, azoblanish tuyg‘ularda ochiq iqror bo‘lishga o‘rgatadi. O‘smirni kelajakni deviant xulq bilan va u siz qarshi olish holatlarini tasvirlashga chaqirish yaxshi natija beradigan ruhiy vositadir. Masalan, ruhshunos mijozga uning kelajakdagi hayotini tasvirlashda spirtli ichimliklarni ayanchli oqibatlarini ko‘rish va faraz qilishga chorlashi kerak. Ruhshunos (psixolog) yoki psixoterapevt nafaqat fikrlashga, balki o‘z his-hayajonini ifoda qilib, olishga ham o‘rgatadi. O‘z

kelajagini tasvirlash uchun kerakli iboralarni topa bilish foyda beradi. Agarda, o'smir o'z deviant xulqi siz kelajagini tasvirlaganda, ijobiy his-tuyg'uni namoyon qilsa, demak, shunday xulqqa erishish chora-tadbirlari dasturini tuzish maqsadiga muvofiq bo'ladi. O'zaro tushunishga erishilsa, kelishuv asosida psixoterapevtik muolajalarni olib boorish o'smirda butun muolaja davrida maqsadga intilib turishni ta'minlaydi. Kelishuv og'zaki yoki yozma kontrak tuzilib, unda faoliyatning maqsadi, usuli, sharti, muddati, shuningdek o'zaro manfaatli nuqtalari belgilanadi. Taraflar barchasi kontrakt shartini bajarishga mas'ul. Kontrakt shartlari buzilsa, nima bo'lishni taraflar kelishi bolgan bo'lishi kerak.

Mijozning muammosini ishlab chiqish asosiy ustuvor vazifadir. Mijoz maslahat beruvchi yordamida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilishi kerak. "Uning yomon xulq-atvorni namoyish qilishdan maqsadi nima?" "Bundan qanday qoniqish hosil qiladi?" "Deviant xulqdan ozod bo'lib, u nimani yo'qotadi?". Bu savollarga javob berishga o'smir qiynalishi mumkin. Agar o'smir ochiq muloqotga, ichidagi his-tuyg'ularni namoyish qilishga qarshilik qilsa, o'zini o'rganishning boshqa usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bu "men va giyohvandlik", "giyohvand moddalarsiz hayot" mavzudagi rasmlar bo'lishi mumkin.

Agar shaxs qat'iy turib muammolarni inkor etib, yaxshi tomonga o'zgarishni istamasa, faol bo'lganlarga murojaat qilinadi. Uning oilasi va referent guruhi (unga ta'sir qiluvchi odamlar) bunda hamkor bo'lishlari kerak. Ko'pchilik bo'lib, unga ta'sir qilish o'z samarasini beradi. Buning uchun deviant xulqli o'smirga qadrli bo'lgan insonlar yig'iladi. Yig'ilganlar suhbatga alohida tayyorgarlik ko'rishadi. Bunda turli me'yordan chekinishlarni yaqqol namoyon qiluvchi hayotiy misollar keltiriladi. Ularning fojiiyaviy yakuni gapirib beriladi. O'smir bilan ishlashdan avval unga ta'sir etuvchi guruh repetitsiya o'tkazi boladi. Bu jarayonni shunday tashkillashtirish lozimki, barcha deviant xulqli o'smirlar uchun obro'ga ega guruh vakillari ta'sir kuchiga ega bo'lgan gaplarni ishlatib, o'smirning o'zini tanqid qilmagan holda, qayta tarbiyalasinlar. Keyinchalik o'smirga tuzalish imkoniyatini

beruvchi istalgan vositani tanlash imkoniyatini berish kerak. Ba'zi hollarda, nechog'liq og'ir bo'lsa ham o'z xoliga qo'yish usuli ham natija berishi mumkin. Usulning ma'nosi – o'smirning xulqiga, xulq-atvor oqibatlariga o'zini mas'ul va javobgar qilish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish yani mutaxassis – ruhshunos o'z mijoziga kerakli bo'lgan usul va vositalarini taklif qiladiki, bu vositalar ijobiy o'zgarishlarini olib kelsin. Albatta o'smir bilan ruhshunos hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun oradagi munosabat halollikka, javobgarlikka, mas'uliyatlikka, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim. "Huquq buzarlikka moyil o'smirlarning deviant xatti-harakatini pedagogic profilaktika qilishda muammo doirasini minimallashtirish" mavzusi bo'yicha o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar asosida savolnomalar, testlar, anketa savollari ishlab chiqilib, o'smirlarda shakllanib ulgurilgan salbiy, deviant xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablarini aniqlash, ota-onalar, maktab rahbarlari, o'qituvchilar, psixologlarga amaliy yordam sifatida quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot tajribalarini olib borishni tavsiya qilamiz

#### **FOYDALANILGANA DABIYOTLAR**

1. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. //uslubiy qo'llanma. – T. – 1998, 85-bet.
2. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. //uslubiy qo'llanma. – T. – 2008, 106-bet.
3. Yo'ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7726>

4. Asliddin o'g, Y. L. S. (2022). PSIXOLOGIK ZO 'RAVONLIK VA KIBERBULLING. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 62-66.
6. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILİYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
7. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 513-515.
8. To'liqinovich, A. G. (2022). IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGI VA MA'NAVIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 561-566.
9. Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ-ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
10. Arakulov, G. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
11. Абдурасулов, Ф. П., Аракулов, Г. Т., Эркинова, М. Т. К., & Мирзахматов, А. Х. У. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 2), 277-282.
12. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
13. Norbekova, B. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI: МАКТАБГАЧА YOSHDAGI

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *Журнал дошкольного образования*, 3(3).

14. Муратович М. Е., Курбон О., Шамсиевна А. М. (2022). Некоторые особенности формирования математических представлений у дошкольников в процессе ознакомления их с размерами и формой предметов.

15. Устин, П., Турсункулова, Ф., & Санаев, А. (2022). Советы психологов, как сделать школьника более ответственным в учебе. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 430-433.

16. Ибайдуллаева, У. Р. Роль отношения родителей к ребенку при разрешении конфликтов. *журнал Вестник интегративной психологии/2021/10//132-135ст.*

17. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).

18. Ибайдуллаева, У., & Маматкулова, Ю. (2022). Ota-ona va farzandlar ortasidagi inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam korsatishning oziga xos xususiyatlari. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 471-473.

19. Ibaydullayeva, U. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN PREVENTING CONFLICTS BETWEEN ADOLESCENT. *Solution of social problems in management and economy*, 1(7), 81-83.

20. Ibaydullayeva, U., & Abdurasulov, R. (2021). The influence of the level of conflict on the characteristics of adolescents. *Society and innovation*, 2(10), 499-505.

21. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ИНДИВИДА, ПСИХОФИЗИЧЕСКИЕ ГОЛОВОЛОМКИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном*

- образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8350>
- 22.Ibaydullayeva, U., & Abdurasulov, R. (2021). The influence of the level of conflict on the characteristics of adolescents. *Society and innovation*, 2(10), 499-505.
- 23.Ибайдуллаева, У. Р. Низоли вазиятларда ўсмирларнинг хулқ-атвор типлари хусусиятлари. *PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет*, (3), 95-100.
- 24.Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO‘DAKLIK DAVRI TO‘G‘RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8239>
- 25.Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Haydarqulov, H. . (2023). O‘QITUVCHI VA TALABALAR O‘RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8240>
- 26.Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO‘DAKLIK DAVRI TO‘G‘RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8239>
- 27.Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA‘SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8236>
- 28.Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. Журнал



Педагогика и психология в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7728>

29. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогика и психология в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721>